



**BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLAR DARSLIGIDAGI
O'SIMLIKLAR DUNYOSI, ULARNING HAYOT TARZI HAQIDAGI
BILIMLARNI BILIB OLISH VA TAHLIL QILISH**

ShDPI o'qituvchisi Alimardanova Mo'tabar

ShDPI talabasi Bozorova Feruza

Annotasiya: *Ushbu maqolada o'simliklarning xilma-xilligi, ularning hayot tarzi, o'sish va rivojlanishi, ko'payish usullari, oziqlanishi, yashash sharoitiiga moslashishi yoritilgan. Bundan tashqari o'simliklarning inson hayotida ahamiyati va hayvonot olamidagi tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berib borilgan.*

Kalit so'zlari: *o'simliklar, hayvonlar, o'simliklar dunyosi, daraxtlar, butalar, o't-o'lanlar, insoniyat, o'simliklar dunyosining afzalliklari, hayvonot olamida tutgan o'rni, dukkakli ekinlar, to'g' o'simliklari, hayot tarzi, o'sishi, suv o'simliklari va hokazo.*

Bugungi kunda barcha yo'nalishlar qatorida ta'lim sohasida ham ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Birgina boshlang'ich ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, yangilangan darsliklar va turli xil materiallar o'quv faoliyatiga olib kirildi. Ushbu darsliklar xorijiy ta'limdan olingan namunalar asosida yaratilgan bo'lib avvalgi darsliklardan anchagina farq qiladi. Yana bir yangilik sifatida boshlang'ich ta'lim fanlariga tabiiy fan darsliklarining qo'shilishini olishimiz mumkin. Ushbu darsliklarda atrof-muhit, unda hayot kechirayotgan hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, jonsiz jinslar va tabiat hodisalari haqidagi bilimlarning boshlang'ich asoslari haqida ma'lumotlar berilgan va mashq daftarchalari asosida amaliy topshiriqlar bajarish imkoniyati mavjud.

O'sliklar barchamiz yashab turgan zaminning ajralmas bo'lagidir. Atrof muhitni asrash uchun yosh o'quvchilarni tabiatga bo'lgan qiziqishini oshirish zarur, shuning uchun tabiiy fan darsligidagi ko'plab ma'lumotlar o'simliklar va ularning hayot tarzi haqida berilgan. O'simliklar dunyosini quyidagi yo'nalishlarga bo'lib o'rgatishimiz mumkin.



1.O‘simliklarning xilma-xilligi.O‘simliklar madaniy va yovvoyi turlarga bo‘linadi.Madaniy o‘simliklar – inson tomonidan ekilib, parvarish qilinadigan va turli ehtiyojlar uchun foydalaniladigan o‘simliklardir. Ular yovvoyi o‘simliklardan ajralib, odamlar mehnati natijasida yaxshilangan va hosildorligi oshirilgan bo‘ladi.Madaniy o‘simliklarga dukkakli o‘simliklardan bug‘doy ,arpa,sholi; sabzavotlardan karam,kartoshka,sabzi va boshqalar kiradi.Yovvoyi o‘simliklar – inson tomonidan ekilmaydigan, tabiiy holda o‘sadigan va mustaqil ko‘payadigan o‘simliklardir. Ular o‘rmonlarda, dashtlarda, cho‘llarda, tog‘larda, daryolar bo‘yida va boshqa tabiiy hududlarda uchraydi.Yovvoyi o‘simliklar sifatida archa , yovvoyi olma,tog‘ pistasi ,moychechak , na’matak va boshqa bir qancha o‘simliklar kiradi.O‘simliklar shakliga ko‘ra daraxtlar ,butalar va o‘tlar kabi turlarga bo‘linadi.Daraxtlar– qattiq yog‘och tanasi va uzoq umr ko‘rishi bilan ajralib turadigan ko‘p yillik o‘simliklardir. Ular yer sharining deyarli barcha iqlim mintaqalarida uchraydi. Daraxtlarga olma ,terak ,archa va bir qancha turlari kiradi.Butalar – past bo‘yli, ko‘p shoxli, yog‘ochsimon o‘simliklar bo‘lib, ular daraxtlardan farqli ravishda bitta asosiy tanaga ega emas. Butalar ham yer yuzining turli iqlim mintaqalarida uchraydi va ularga olcha butasi ,o‘rik butasi ,lola butasi ,atirgul butasi v aboshqa butalar misol bo‘la oladi.O‘tlar – yumshoq poyali, nisbatan past bo‘yli, ko‘p hollarda bir yillik yoki ko‘p yillik o‘simliklardir. Ular yer yuzining deyarli barcha joylarida uchraydi va xillari juda ko‘p tarqalgan.O‘simliklar yashash muhitiga qarab tog‘da quruqlikda,suvda va cho‘llarda yashaydilar.Tog‘ o‘simliklariga pista ,archa va hokazolarni ,quruqlikda o‘suvchi o‘simliklarga esa arpa ,bug‘doy,daraxtlar ,gullarni ,suv o‘simligiga Nilufar gulni va cho‘l o‘simliklariga saksovul ,kaktus,yantoq kabilarni kiritishimiz mumkin.

2.O‘simliklarning hayot tarzi.O‘sishi va rivojlanishi.

Urug‘ning unib chiqishi.Urug‘ o‘sish uchun namlik, issiqlik va kislorod talab qiladi.Urug‘ qobig‘i yorilib, ildizcha va poyacha o‘sib chiqadi.Tuproqqa ildiz otib, oziq moddalar va suvni o‘zlashtirish boshlanadi.2. Ko‘chatning rivojlanishi.Ildiz tizimi kengayib, o‘simlik mustahkamlanadi.Birinchi haqiqiy barglar paydo bo‘lib, fotosintez jarayoni boshlanadi.O‘simlik oziq moddalarni yig‘ib, tez o‘sadi.3. Gullash va changlanish.O‘simlik yetilgan sari gullaydi, bu ko‘payishning



boshlanishi. Changlanish hasharotlar, shamol yoki suv yordamida sodir bo'ladi. Changlanganidan keyin urug' va mevalar shakllanadi. 4. Meva va urug' hosil bo'lishi. Mevalar pishib, ichida yangi urug'lar hosil bo'ladi. Urug'lar tarqalib, yangi o'simliklar paydo bo'lishi uchun tayyorlanadi. 5. Qarish va nobud bo'lish. O'simlik o'z hayot tsiklini tugatadi. Yillik o'simliklar nobud bo'ladi, ko'p yillik o'simliklar esa dam olish davriga o'tadi.

3. O'sliklarning insoniyat va hayvonot olamida tutgan o'rni.

Insonlar o'simliklardan turli maqsadlarda foydalanishadi. Masalan o'simliklarni iste'mol qilish va ulardan dorivor vositasida foydalanilishi mumkin. Sabzavotlarni muntazam ravishda iste'mol qilish inson imun tizimini mustahkamlaydi va sog'lig'ini bir me'yorda ushlab turishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'simliklardan turli xil xomashyo sifatida foydalanish, ulardan turli xil mebel va sanoatning boshqa sohalarida ishlatishida mumkin. Yana bir afzalligi o'simliklardan estetik go'zallik baxsh etuvchi bog' va manzaralardir, bu manzaralardan bahramand bo'lgan kishi stress va charchoqdan holi bo'ladi. O'simliklarning hayvonlar uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki ko'pgina hayvonlar o't-o'lan va o'simliklar bilan oziqlanadi. Bundan tashqari, zaif hayvonlar daraxt va butalar orasiga yashirinib yirtqich hayvonlardan jon saqlashlari va tiriklik zanjirini muvozanatda saqlab qolishga imkon beradi. O'simlik dunyosining butun tabiat uchun eng muhim jihati karbonat angidrid gazini yutib, o'zida qayta filtrlab tashqi muhitga kislorod holida yetkazib berishidir. Ehtimol, o'simliklar bo'lmaganida insoniyat va hayvonot olami ham yo'qolib ketishi mumkin edi. O'simliklar nafaqat oziq-ovqat manbai, balki hayotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular atrof-muhitni toza saqlashga, insonlarning salomatligini yaxshilashga va hayvonlarning yashash joylarini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat haqidagi malumotlarni berish va ularni tabiatni asrashga bo'lgan qiziqishini oshirish bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biridir. O'simliklar ham suv kabi bizning hayot manbayimiz, shuning uchun ham o'simliklarni asrash va ko'paytirish har birimizning oliy burchimizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :



1. “Tabiiy fanlar. 1–4-sinflar uchun darsliklar”, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
2. Jo‘rayev M., Xo‘jaqulova Z. – “O‘simliklar dunyosi”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2020.
3. Nabiyeu A. Va boshqalar – “Biologiya. 6–7-sinflar uchun darslik”, Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
4. Rustamova M., Islomov Q. – “Atrof-muhit va biz”, Toshkent, 2019.
5. Qoraev S., Karimov A. – “Umumiy biologiya”, oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma, 2018.
6. Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 1–12 jildlar, Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti.
7. Biologiya va ekologiya fanlari bo‘yicha ilmiy maqolalar, www.ziyounet.uz portali.